XALQ DEPUTATLARI BAG‘DOD TUMANI KENGASHI
QARORI

Bag‘dod tumani 20733571, Mustaqillik ko‘chasi, 15-uy. Tel:(73) 479-27-66

2022 - yil 8 - yanvar VI-38-4-11-152-K/22 Bag'dod tumani hokimligi

Bag‘dod tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda Farg‘ona viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 30-dekabrdagi xatini hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashi 2021-yil 30-dekabrdagi qarorini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2021-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-740-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi), xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi qaroriga muvofiq Bag‘dod tumani mahalliy budjetining 2022-yilgi daromadlari 88,9 mlrd.so‘m va xarajatlari 195,2 mlrd.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat mahalliy budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 106,3 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Bag‘dod tumanining 2022-yilda rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari, tuman mahalliy budjeti daromadlarining

2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman mahalliy budjetidan 2022-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga hamda budjet tashkilotlariga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Farg‘ona viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

8. 2022-yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1,8 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, tuman budjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

Farg‘ona viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalari miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. 2022-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 821,0 mln. so‘mni

tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori belgilansin.

10. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 5-ilovaga muvofiq;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar belgilansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar:

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aktsiz solig‘i;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

ayrim tovarlarni chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga)

ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat budjeti daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo‘yicha ajratmalar va dividendlar;

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar;

Boshqa tushumlar (ushbu bandning “v” va “g” qismlarida nazarda tutilgan daromadlardan tashqari barcha daromadlar, shu jumladan tuman va shahar mahalliy budjetlarining boshqa tushumlari hamda budjet tashkilotlari asosiy vositalari sotilishidan tuman va shahar budjetlariga tushumlar) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘lig‘icha o‘tkazilishi;

b) Mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi;

v) Quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar shahar va tumanlar budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

g) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjetidan tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning tumanda 50 foizi;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aktsiz solig‘idan tushumlarning tumanda 20 foizi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) tumanda 50 foizi;

yuridik shaxslar yer va mol-mulk soliqlag‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig‘idan tushumlarning tumanda 50 foizi;

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkazilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Dehqonov), moliya bo‘limi (Sadriddinov), Davlat soliq inspektsiyasi (Abduraxmonov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda 2022-yilgi mahalliy budjetida belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

13. Belgilansinki:

tuman hokimligi barcha o‘rinbosarlari, mas’ul tashkilot va muassasalar tomonidan 2022-yilda budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

14. Tuman davlat soliq inspektsiyasi (Abduraxmonov) hududiy soliq inspektorlari bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

Yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

Aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati

tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman davlat soliq inspektsiyasi (Abduraxmonov), Kadastr bo‘limi (Goziyev) 2022-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasinlar.

16. Tuman davlat soliq inspektsiyasi (Abduraxmonov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspektsiyasi Farg‘ona mintaqaviy inspektsiyasi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17. Majburiy ijro byurosi Bag‘dod tuman bo‘limi (Yuldashev), tuman davlat soliq inspektsiyasi (Abduraxmonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

18. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (Karimova), tumandagi mahalla fuqorolar yig‘inlari bilan birgalikda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsinlar.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Dehqonov) bo‘sh turgan ob’yektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

Bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini “E-AUKSION” mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

20. Tuman hokimi o‘rinbosarlari Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi bilan birgalikda tashqi reklama ob’yektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’yektlari bo‘yicha shartnomalar tuzsinlar hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilishini ta’minlasinlar.

21. Tuman irigatsiya tizimi bo‘limi boshlig‘i (Xaydarov) va tuman davlat soliq inspektsiyasi (Abduraxmonov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

22. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Xasanov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (Jakbarov), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi (Mirzaxparov) tumanda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

23. Qonunning 13-moddasiga muvofiq:

tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha Qonunning 6-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan;

tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha mazkur qarorning 5-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari tuman hokimligining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qilishi to‘g‘risidagi belgilangan tartibga amal qilsinlar.

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, tuman hokimliklari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma’sulligi belgilab qo‘yilsin.

24. Tuman budjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tuman hokimligining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar

va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tegishlicha tuman hokimligi tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi.

25. Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy budjetining ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

26. Tuman hokimi o‘rinbosarlari, budjet mablag‘lari taqsimlovchilari hamda mas’ul tashkilotlar:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruktsiya va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarida ularning natijalarini joylashtirib borilishini ta’minlasin.

27. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Dehqonov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tumandagi tegishli tashkilotlar rahbarlari:

Budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga kiritib borilishini ta’minlasin.

28. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

29. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

30. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

31. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **V.Nazarov**

Халқ депутатлари Бағдод туман
Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-38-4-11-152-K/22-сон қарорига
1-илова

Bag‘dod tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

№	Daromadlar nomi	Bog‘dod tumani
I.	**Tartibga soluvchi daromadlar**	**23 844 500**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i	*23 844 500*
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i	*0*
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**29 390 300**
	To‘liq tuman mahalliy byudjetiga	**21 938 000**
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	7 256 000
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i	1 020 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 533 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`i	8 791 000
5	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	338 000
	Viloyat va tuman mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**7 452 300**
1	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	*91 500*
2	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizelь yoqilg`isi va gaz realizatsiya qilishdagi aktsiz solig`i	*2 865 800*
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*418 000*
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig`i	*2 841 500*
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*1 235 500*
III.	**Mahalliy byudjet daromadlari prognozi**	**53 234 800**
IV.	**O`tkazib beriladigan daromadlar**	**35 598 000**
	Aholi soni (ming.kishi) 01.07.2021 holatiga	*221*
14	Alkogolь mahsulotlari, shu jumladan pivo	13 473 000
15	Mobilь aloqa xizmatini ko‘rsatganlik uchun aktsiz solig`i	7 676 000
16	Tamaki mahsulotlari bo‘yicha aktsiz solig`i	14 449 000
V.	**Mahalliy byudjetlarning jami daromadlari**	***88 832 800***
VI.	**Mahalliy byudjetlarning jami xarajatlari**	**195 192 287**
VII.	**Transfertlar**	**106 359 487**

Халқ депутатлари Бағдод туман Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-38-4-11-152-K/22-сон қарорига
2-илова

Bag‘dod tumani mahalliy byudjetlarining xarajatlari

bo‘yicha 2022 yil uchun

ming so‘m

Ko‘rsatkichlar		Bog`dod tumani
	XARAJATLAR-JAMI	**195 192 287**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI**	**152 934 046**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	30 723 222
	- maktabgacha ta’lim	18 631 243
	- umumiy ta’lim	12 091 979
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	Sog‘liqni saqlash	68 735 881
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	6 155 308
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 741 215
	- sport	4 414 093
1.4	Fan	0
1.5	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	47 231 681
1.14	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	87 954
2.	**IQTISODIYOTGA XARAJATLAR**	**12 209 587**
	shu jumladan:	

2.3	Obodonlashtirish	9 637 251
2.16	Veterinariya qo‘mitasi	989 336
2.17	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 583 000
3.	**MARKAZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHGA XARAJATLAR**	**0**
4.	**DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINI SAQLASH**	**10 495 796**
	shu jumladan:	
4.1	Davlat xokimiyati organlari	
4.2	Davlat boshqaruv idoralari	10 495 796
5.	**FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINI SAQLASH**	**6 203 356**
6.	**Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari**	**1 710 786**
7.	**Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari**	**503 277**
6.	**ZAHIRA JAMG`ARMASI**	**1 840 568**
7.	**BOShQA XARAJATLAR**	**9 294 871**
	shu jumladan:	
7.1	Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	0
7.2	Qabullar uyini saqlash xarajatlari	0
7.3	Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi	9 294 871
	JAMI MAHALLIY DAROMADLAR	**88 935 800**
	TRANSFERT	**106 256 487**

Халқ депутатлари Бағдод туман Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-38-4-11-152-K/22-сон қарорига
3-илова

2022 yil uchun byudjet daromadlarining mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha ajratma me’yorlari

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Korxonalar aylanmasidan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i	Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig`i	Benzin, dizel yoqilg`isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan yer solig`i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig`i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
1	Bog‘dod tumani	100	50	100		20	100	100	50	100	50	50	50

Халқ депутатлари Бағдод туман
Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-38-4-11-152-K/22-сон қарорига
4-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

ming so‘mda

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffitsiyent(0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun
1	Ba`dod tumani	Namuna MFY	1,02	29 580
2	Bag‘dod tumani	Amirobod MFY	1,02	29 580
3	Bag‘dod tumani	Chekmirzaobod MFY	1,02	29 580
4	Bag‘dod tumani	Bog‘ishamol MFY	1,02	29 580
5	Bag‘dod tumani	Qirqvolida MFY	1,02	29 580
6	Bag‘dod tumani	Obod yurt MFY	1,02	29 580
7	Bag‘dod tumani	Xo‘jaqishlok MFY	1,02	29 580
8	Bag‘dod tumani	Mirishkor MFY	1,02	29 580
9	Bag‘dod tumani	Qaroqchitol MFY	1,02	29 580
10	Bag‘dod tumani	Qarovultepa MFY	1,02	29 580
11	Bag‘dod tumani	Paxtaobod MFY	1,02	29 580
12	Bag‘dod tumani	Cho‘rindi MFY	1,02	29 580
13	Bag‘dod tumani	Qo‘shchinor MFY	1,02	29 580
14	Bag‘dod tumani	Qashqari MFY	1,02	29 580
15	Bag‘dod tumani	Samandarak MFY	1,02	29 580
16	Bag‘dod tumani	Muruvat MFY	0,83	24 070
17	Bag‘dod tumani	Guliston MFY	0,83	24 070
18	Bag‘dod tumani	Navro‘z MFY	1,02	29 580
19	Bag‘dod tumani	Qorako‘l MFY	1,02	29 580
20	Bag‘dod tumani	Qug‘oli MFY	1,02	29 580
21	Bag‘dod tumani	Irg‘oli MFY	1,02	29 580
22	Bag‘dod tumani	Qahat MFY	1,02	29 580
23	Bag‘dod tumani	Chuvalanchi MFY	1,05	30 450
24	Bag‘dod tumani	Tuvadaq MFY	1,05	30 450
25	Bag‘dod tumani	Xitoy MFY	1,05	30 450
26	Bag‘dod tumani	Yangiobod MFY	1,05	30 450
27	Bag‘dod tumani	Istiqlol MFY	0,9	26 100
28	Bag‘dod tumani	Bedarak MFY	0,9	26 100
29	Bag‘dod tumani	Do‘rmancha MFY	0,9	26 100

30	Bag‘dod tumani	Muqumiy MFY	1,09	31 610
31	Bag‘dod tumani	Do‘stlik MFY	1,09	31 610
32	Bag‘dod tumani	O‘zbekiston MFY	1,09	31 610
33	Bag‘dod tumani	Ittifok MFY	1,09	31 610
34	Bag‘dod tumani	Nurafshon MFY	1,09	31 610
35	Bag‘dod tumani	Dasht MFY	0,83	24 070
36	Bag‘dod tumani	Ko‘shtegirmon 1 MFY	1,02	29 580
37	Bag‘dod tumani	Chulyunus MFY	1,02	29 580
38	Bag‘dod tumani	Olchin MFY	1,02	29 580
39	Bag‘dod tumani	Ko‘shtegirmon 2 MFY	1,02	29 580
40	Bag‘dod tumani	Ultarma MFY	1,02	29 580
41	Bag‘dod tumani	Yuksalish MFY	1,02	29 580
42	Bag‘dod tumani	Bordon MFY	1,02	29 580
43	Bag‘dod tumani	Cheksaroy MFY	0,9	26 100
44	Bag‘dod tumani	Matqulobod MFY	1	29 000
45	Bag‘dod tumani	Karimbobo MFY	0,8	23 200
46	Bag‘dod tumani	Oydinbuloq MFY	1	29 000
47	Bag‘dod tumani	Chekxitoy MFY	1	29 000
48	Bag‘dod tumani	Sayidobod MFY	1,09	31 610
49	Bag‘dod tumani	Samarkand MFY	1,09	31 610
50	Bag‘dod tumani	Mehnatobod MFY	0,9	26 100
51	Bag‘dod tumani	Bag‘dod MFY	1	29 000
52	Bag‘dod tumani	Zafarobod MFY	0,8	23 200
53	Bag‘dod tumani	Begobod MFY	1	29 000
54	Bag‘dod tumani	Konizar MFY	1	29 000
55	Bag‘dod tumani	Sho‘raqer MFY	1	29 000
56	Bag‘dod tumani	Mirzaobod MFY	1	29 000
57	Bag‘dod tumani	Yuqori Mirzaobod MFY	1	29 000
58	Bag‘dod tumani	Maylavoy MFY	1,09	31 610
59	Bag‘dod tumani	Sahovat MFY	1,09	31 610

Халқ депутатлари Бағдод туман
Кенгашининг
2022 йил 8 январдаги
VI-38-4-11-152-K/22-сон қарорига
5-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 kv uchun)
1	Bag‘dod tumani	Na’muna MFY	1	260
2	Bag‘dod tumani	Amirobod MFY	1	260
3	Bag‘dod tumani	Chekmirzaobod MFY	0,95	247
4	Bag‘dod tumani	Bog‘ishamol MFY	0,95	247
5	Bag‘dod tumani	Qirqvolida MFY	1	260
6	Bag‘dod tumani	Obod yurt MFY	1,03	267,8
7	Bag‘dod tumani	Xo‘jaqishlok MFY	1,03	267,8
8	Bag‘dod tumani	Mirishkor MFY	1,03	267,8
9	Bag‘dod tumani	Qaroqchitol MFY	1,03	267,8
10	Bag‘dod tumani	Qarovultepa MFY	0,95	247
11	Bag‘dod tumani	Paxtaobod MFY	1,03	267,8
12	Bag‘dod tumani	Cho‘rindi MFY	1,03	267,8
13	Bag‘dod tumani	Qo‘shchinor MFY	1,03	267,8
14	Bag‘dod tumani	Qashqari MFY	1,03	267,8
15	Bag‘dod tumani	Samandarak MFY	1,03	267,8
16	Bag‘dod tumani	Muruvat MFY	1,03	267,8
17	Bag‘dod tumani	Guliston MFY	1,03	267,8
18	Bag‘dod tumani	Navro‘z MFY	1,03	267,8
19	Bag‘dod tumani	Qorako‘l MFY	0,95	247
20	Bag‘dod tumani	Qug‘oli MFY	1,03	267,8
21	Bag‘dod tumani	Irg‘oli MFY	0,95	247
22	Bag‘dod tumani	Qahat MFY	0,95	247
23	Bag‘dod tumani	Chuvalanchi MFY	1,03	267,8
24	Bag‘dod tumani	Tuvadaq MFY	1,03	267,8
25	Bag‘dod tumani	Xitoy MFY	1,03	267,8
26	Bag‘dod tumani	Yangiobod MFY	1,03	267,8
27	Bag‘dod tumani	Istiqlol MFY	1,03	267,8
28	Bag‘dod tumani	Bedarak MFY	1,03	267,8

29	Bag‘dod tumani	Do‘rmancha MFY	1,03	267,8
30	Bag‘dod tumani	Muqumiy MFY	1,07	278,2
31	Bag‘dod tumani	Do‘stlik MFY	1,07	278,2
32	Bag‘dod tumani	O`zbekiston MFY	1,07	278,2
33	Bag‘dod tumani	Ittifok MFY	1,07	278,2
34	Bag‘dod tumani	Nurafshon MFY	1	260
35	Bag‘dod tumani	Dasht MFY	0,85	221
36	Bag‘dod tumani	Ko‘shtegirmon 1 MFY	1,07	278,2
37	Bag‘dod tumani	Chulyunus MFY	1,07	278,2
38	Bag‘dod tumani	Olchin MFY	1,07	278,2
39	Bag‘dod tumani	Ko‘shtegirmon 2 MFY	1,07	278,2
40	Bag‘dod tumani	Ultarma MFY	1,07	278,2
41	Bag‘dod tumani	Yuksalish MFY	1,07	278,2
42	Bag‘dod tumani	Bordon MFY	1,07	278,2
43	Bag‘dod tumani	Cheksaroy MFY	1,07	278,2
44	Bag‘dod tumani	Matqulobod MFY	1,07	278,2
45	Bag‘dod tumani	Karimbobo MFY	0,85	221
46	Bag‘dod tumani	Oydinbuloq MFY	0,8	208
47	Bag‘dod tumani	Chekxitoy MFY	0,8	208
48	Bag‘dod tumani	Sayidobod MFY	1	260
49	Bag‘dod tumani	Samarkand MFY	1	260
50	Bag‘dod tumani	Mehnatobod MFY	0,95	247
51	Bag‘dod tumani	Bag‘dod MFY	0,85	221
52	Bag‘dod tumani	Zafarobod MFY	0,8	208
53	Bag‘dod tumani	Begobod MFY	1,07	278,2
54	Bag‘dod tumani	Konizar MFY	1,07	278,2
55	Bag‘dod tumani	Sho‘raqer MFY	1,07	278,2
56	Bag‘dod tumani	Mirzaobod MFY	1,07	278,2
57	Bag‘dod tumani	Yuqori Mirzaobod MFY	1,07	278,2
58	Bag‘dod tumani	Maylavoy MFY	1,07	278,2
59	Bag‘dod tumani	Sahovat MFY	1,07	278,2